



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 206 sahifa,  
16-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
<a href="#">Shermanova Feruza Djumaboyevna</a>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati .....	15
<a href="#">Xurramov Anvar Vafqulovich</a>	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati .....	19
<a href="#">Olim Ziyoyev Toshpulatovich</a>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
<a href="#">Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi .....	26
<a href="#">Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora</a>	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi .....	30
<a href="#">Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</a>	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari ....	34
<a href="#">Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</a>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi .....	40
<a href="#">Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi</a>	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri .....	44
<a href="#">Kushakova Nargiza Islambaevna</a>	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes .....	47
<a href="#">Majitova Munisa Oybek qizi</a>	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	51
<a href="#">Normurodova Qunduz Tursun qizi</a>	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish .....	54
<a href="#">Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li</a>	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi .....	58
<a href="#">Po'latova Sitora Olimjonovna</a>	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari .....	62
<a href="#">Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich</a>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
<a href="#">Shomurotova Sh. X.</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari .....	70
<a href="#">Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</a>	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
<a href="#">Shermanova Feruza Djumaboyevna</a>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
<a href="#">Suvanova Kamola Raimqul qizi</a>	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
<a href="#">Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi</a>	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
<a href="#">Набиев Абдулло Абдувохидович</a>	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari .....	88
<a href="#">Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna</a>	



Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy fazilatlarini shakllantirish .....	91
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi</i>	
Ekologik muammoli vaziyatlar orqali kimyo fanida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi .....	96
<i>Ibodullayeva M. I., Dinnazarova F. S.</i>	
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish metodikasi ....	101
<i>Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	
Talabalarni milliy hunarmandchilik vositasida samogen tarbiyalashda tarixiylik tamoyili .....	104
<i>Allanov Shuxrat Qilichovich</i>	
"Harry Potter" asarining o'zbekcha tarjimasida stilistik vositalarni qayta yaratish masalalari .....	108
<i>Fayziyev Baxodir Baxshilloevich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalanish .....	112
<i>Imamova Nilufar Zabiylulla qizi, Nurmatova Gulchexra Baxadirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari .....	116
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash .....	119
<i>Eshonqulova Ma'suda Habibovna</i>	
Yosh oilalarda nikoh barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar .....	123
<i>Islomova Ozoda Isomiddin qizi</i>	
Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish metodologiyasi .....	127
<i>Abdullayeva Maftuna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratishning pedagogik ahamiyati .....	131
<i>Turayeva Gulchexra Urayimovna, Ziyaeva Umida Xolmat qizi</i>	
STEAM asosida kollaborativ ta'lim muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish .....	135
<i>Axmadova Malika</i>	
Yosh sportchilarni sportga yo'naltirish va sportchilarni tanlash muammolari (futbol sport turi misolida) .....	139
<i>Xotamov Jaloliddin Xusniddin o'g'li</i>	
Biologiyada amaliy tajribalar o'tkazishning zamonaviy virtual yechimlari .....	143
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati .....	146
<i>D. P. Xodiyeva, M. Sh. To'rayeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish metodikasi (texnologiya darslari misolida) .....	150
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Jurayeva Ozoda Ortiq qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish .....	154
<i>G'. Yu. Eshmirzayev</i>	
O'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kimyo ta'limining o'rni va o'ziga xos jihatlari .....	157
<i>Kamolova Nargiza Ibragimovna</i>	
Bilingvizm (ikki tillilik) sharoitida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari ....	161
<i>Mapruza Embergenova</i>	
Zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyasi va psixologik jins xususiyatlari: maskulinlik, femininlik va androginlikning empirik tahlili .....	167
<i>Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning amaliy tatbiqlarini o'qitish haqida .....	171
<i>Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari .....	177
<i>Raximova Nigora Atakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash orqali nutqiy qobiliyatini rivojlantirish ..	180
<i>Xo'jayeva Durdonaxon Maqsud qizi, Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna</i>	
Pul qadriyatining o'smirlik davrida shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, ijtimoiy va psixologik omillar: iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik yondashuvda tahlili .....	184
<i>Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna</i>	

O'smirlarda koping xulq-atvor shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari .....	189
<a href="#">Yarmatova Sanobar Jo'rayevna</a>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlar .....	193
<a href="#">Norquvatova Diyora Davron qizi</a>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari .....	197
<a href="#">Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</a>	
Системно-функциональное моделирование и эмпирический анализ нравственно-волевой детерминации в профессиональной деятельности военнослужащих .....	201
<a href="#">Зохилов Нодирбек Улугбекович</a>	

# BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

**D. P. Xodiyeva**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida dotsenti

**M. Sh. To'rayeva**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik va psixologik ahamiyati yoritiladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning tabiatga munosabatini ijobiy tomonga yo'naltirish, ularda ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirishning samarali usullari tahlil etiladi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar hamda amaliy tavsiyalar ilmiy asosda bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ekologik madaniyat, boshlang'ich sinflar, ekologik tarbiya, tabiat, ekologik ong, innovatsion metodlar, barqaror rivojlanish.

**Abstract:** The pedagogical and psychological significance of developing ecological culture in primary school students is examined through the analysis of effective methods. Approaches to fostering a responsible attitude toward nature among young learners, as well as developing ecological awareness and responsibility, are discussed. Innovative teaching methods and practical recommendations used in the educational process are presented.

**Key words:** ecological culture, primary school, environmental education, nature, ecological awareness, innovative methods, sustainable development.

**Аннотация:** Педагогическая и психологическая значимость формирования экологической культуры у учащихся начальных классов раскрывается через анализ эффективных методов. Рассматриваются подходы к формированию у младших школьников ответственного отношения к природе, развитию экологического сознания и чувства ответственности. Представлены инновационные методы и практические рекомендации, применяемые в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** экологическая культура, начальные классы, экологическое воспитание, природа, экологическое сознание, инновационные методы, устойчивое развитие.

## KIRISH

Bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri – global ekologik inqirozdir. Tabiat resurslarining kamayishi, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi nafaqat bir davlat, balki butun Yer yuzi aholisidan tabiatga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Bunday murakkab sharoitda kelajak avlodni tabiat bilan uyg'unlikda yashashga o'rgatish, ularda yuksak ekologik madaniyatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekistonda har bir yilga muayyan bir ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida maxsus nom berish an'anasi mavjud.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqiga binoan, 2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va ‘yashil’ iqtisodiyot yili” deb e'lon qilindi. Ushbu yil doirasida quyidagi asosiy maqsadlar belgilandi:

- ekologik barqarorlik – iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va tabiatni muhofaza qilish;
- “yashil” energetika – qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh, shamol panellari) keng joriy etish;
- “yashil makon” – mamlakat bo'ylab daraxtzorlar va bog'larni ko'paytirish loyihasini davom ettirish;
- resurs tejash – suv va elektr energiyasidan oqilona foydalanish texnologiyalarini rivojlantirish.



Bu maqsadlar yurtimizda ekologiya va atrof-muhitga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonida <sup>[1]</sup> ham aholi uchun qulay ekologik sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)ni tashkil etish to'g'risidagi farmon <sup>[2]</sup> hamda boshqa qarorlar mamlakatimizda ekologik madaniyatni shakllantirishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Shu sababli, respublikamizda "Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" <sup>[3]</sup>da ta'kidlanganidek, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ekologik bilimlar berish hayotiy zaruriyatdir. Buning uchun eng qulay va poydevor davr – boshlang'ich sinf davridir. Aynan shu davrda 7–11 yoshli bolalarda dunyoqarash shakllanadi, ularning qalbida tabiatga nisbatan ilk mehr-muhabbat va mas'uliyat tuyg'usi kurtak yozadi. Bu davr boshlang'ich sinf davriga to'g'ri keladi <sup>[4]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi pedagogika fanida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. D. Sharipova, D. Xodiyeva va M. Shirinov 2020-yilda chop etilgan "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" asarida ekologik tarbiyaning boshlang'ich bosqichdan boshlab tizimli ravishda olib borilishi zarurligini ta'kidlaydi. Mualliflar kichik yoshdagi o'quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishda kuzatish, tajriba va amaliy mashg'ulotlarning muhim rol o'ynashini ilmiy asoslaydi.

S.T. Azimova 2021-yilda olib borgan tadqiqotlarida maktab o'quvchilari va talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida tahlil qiladi. U ekologik ongni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol metodlar va integratsiyalashgan ta'lim yondashuvlarining samaradorligini ko'rsatib beradi. Tadqiqotda ekologik tarbiya faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, balki o'quvchilarning kundalik faoliyatiga singdirilishi zarurligi asoslab berilgan.

G. Maxsudova, G. Abrordinova va X. Ashurov 2025-yilda e'lon qilingan ilmiy ishlarida ekologik ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyatini keng yoritib, uning shaxs kamolotidagi o'rnini belgilab beradi. Ular ekologik madaniyatni shakllantirishni uzluksiz ta'lim tizimi bilan bog'lab, ayniqsa boshlang'ich sinf bosqichida bu jarayonning poydevori qo'yilishini ta'kidlaydi. Mualliflar ekologik tarbiyada milliy qadriyatlar, amaliy faoliyat va ijtimoiy muhitning uyg'unligi muhim omil ekanini qayd etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishga oid ma'lumotlar pedagogik kuzatish, suhbat va anketa usullari orqali yig'ildi. O'quvchilarning ekologik bilim darajasi, tabiatga munosabati va xulq-atvori dars jarayonlari hamda sinfdan tashqari faoliyat davomida muntazam kuzatib borildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, umumlashtirish va statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, natijalar tizimlashtirildi. Shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalar va mavjud ilmiy manbalar tahlili asosida ekologik tarbiya samaradorligini baholash amalga oshirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish shunchaki nazariy bilim berish emas, balki ularda atrof-muhitni asrash bo'yicha barqaror ko'nikma va xulq-atvorni tarbiyalash demakdir. Mazkur maqolada kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga ekologik tarbiya berishning metodik asoslari va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi <sup>[5]</sup>.

Ekologik madaniyat bu – faqat tabiat haqidagi faktlarni bilish (masalan, daraxtlar kislorod berishini bilish) emas, tabiat qonuniyatlarini tushunish, atrof-muhitni o'z uyi kabi his qilish, amalda tabiatga zarar yetkazmaslik va uni asrashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning quyidagi choralari hisobga olish va ulardan foydalanish mumkin <sup>[6]</sup>.

**Boshlang'ich sinf o'quvchisining psixologik tayyorgarligi:** Bu davr 7–11 yoshga to'g'ri keladi va bu yoshdagi bolalar dunyoni hissiyotlar orqali qabul qiladi. Pedagogika fanida bu davr "sensitiv davr" (sezuvchan davr) deyiladi. Bolalar bu yoshda taqlidchan bo'lishadi, ya'ni ustozlari va ota-onalaridan namuna olishadi. Ularda "jonli" va "jonsiz" tabiat o'rtasidagi chegara juda nozik bo'ladi – ular daraxt yoki gulni ham xuddi o'zidek "og'riqni his qiladi", deb tasavvur qila oladilar. Bu esa empatiya (rahmdillik) hissini uyg'otish uchun eng qulay vaqt hisoblanadi.

**Ekotsentrik dunyoqarashni shakllantirish:** Insoniyat uzoq vaqt davomida "tabiat – inson uchun xizmatkor" degan (antroposentrik) g'oya bilan yashagan. Ekologik madaniyatning mohiyati – ekotsentrizm, ya'ni inson tabiatning xo'jayini emas, balki uning bir qismi ekanligini bolaga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Ma'naviy-axloqiy ildizlar:** O'zbek xalqining milliy qadriyatlarini, masalan, "Birni kessang, o'nni ek", "Suvga tupurma" kabi maqollar ekologik madaniyatning asosi hisoblanadi. Bu kabi milliy qadriyatlar oilada va maktabda singdiriladi. Bolalar madaniyatni, xususan ekologik madaniyatni ham uyda ota-onasidan, maktabda esa ustozlaridan o'rganadi.

Ekologik madaniyatga ega bo'lish va tabiatni sevish – bu insonning tabiat oldidagi imtihonidir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi bu imtihondan o'tishni tabiatni sevishdan boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga oddiy ma'ruza o'qish samara bermaydi. Darslarni integratsiyalash va qiziqarli metodlar orqali ekologik madaniyatni shakllantirish samaraliroq bo'ladi. O'quvchiga kichik, ammo natijasi ko'rinadigan topshiriqlar berish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

**"Mening niholim" loyihasi:** Har bir o'quvchi sinf xonasida yoki maktab bog'ida bitta gul yoki daraxt parvarish qiladi. Bu bolada daxldorlik va mas'uliyat hissini uyg'otadi. Oddiygina sinf xonasidagi gulni o'tkazishdan boshlab, uning o'sishi va gullashini kuzatish, qolaversa, kislorod ajratib, havo tozaligiga hissa qo'shishini o'rganish o'quvchida tabiatga bo'lgan muhabbatni yanada oshiradi.

**"Chiqindining ikkinchi hayoti":** Plastik idishlar yoki qog'ozlardan foydali buyumlar yasash ko'rgazmasi orqali qayta ishlash (recycling) tushunchasi o'rgatiladi. Plastik idishlardan chiroyli va foydali mahsulotlar, masalan, qalamdon yoki konteynerlar yasash mumkin. Bunday faoliyat bolalarda ijodkorlikni oshiradi, tabiatga va o'z qo'llari bilan yaratilgan mahsulotlarga nisbatan mas'uliyatni rivojlantiradi.

Darsni faqat sinf xonasida emas, balki tabiat qo'ynida o'tkazish ham muhimdir. Maktab bog'i, yaqin atrof-dagi istirohat bog'i yoki daryo bo'yiga sayohat uyushtirish o'quvchilarda tabiatga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi.

**Kuzatish kundaligi yuritish:** Bolalar tabiatdagi o'zgarishlarni – barglarning sarg'ayishi, qushlarning uchib ketishini rasmga chizib yoki yozib borish orqali estetik didini rivojlantiradi. Sinf xonasida yoki maktab bog'ida o'tkazilgan ko'chatlarni kuzatib, kundalikka yozib borish ham samarali hisoblanadi.

**"Yashil burchak" muhitini yaratish:** Sinf xonasida har bir o'quvchi uchun alohida joy ajratish va u yerda o'simliklar parvarishini tizimli yo'lga qo'yish muhimdir. Maktab bog'ida tashkil etilgan bunday hududlar o'quvchilarda ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantiradi.

**Interfaol va didaktik o'yinlar** – boshlang'ich sinf o'quvchisining asosiy faoliyat turlaridan biridir. Quyida shunday o'yinlarning ayrimlari keltiriladi:

1. "Zanjirni uzma" – tabiatdagi oziq-ovqat zanjirini tushuntiruvchi o'yin. Masalan: o't → chigirtka → qurbaqa → ilon. Agar bitta halqa yo'qolsa, nima bo'lishini o'quvchi o'yin orqali anglab oladi.
2. "Ekologik svetofor" – tabiatga foydali harakatlar (yashil), shubhali harakatlar (sariq) va zararli harakatlar (qizil) kartochkalar orqali ajratiladi.

Yuqoridagi tavsiyalar va metodlardan tashqari, ekologik madaniyatni shakllantirishda integratsiyalashgan darslar ham muhim ahamiyatga ega. Integratsiyalashgan darslar orqali ekologiya mavzusini nafaqat tabiiy fanlar, balki texnologiya va tarbiya darslari bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarga oson va samarali o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

**"Chiqindisiz maktab" aksiyasi:** Maktab koridorlariga chiqindilarni saralab tashlash uchun maxsus qutilar o'rnatish va bolalarga qog'oz hamda plastikning farqini amalda o'rgatish muhimdir. Tabiatda materialning turli davrda yo'q bo'lishi haqida bilim beriladi. Plastik mahsulotlar juda uzoq vaqt davomida (o'rtacha 10–500-yilgacha) parchalanishini, tabiatga katta zarar yetkazishini bilish orqali bolalarda mas'uliyat hissi kuchayadi.

**Oila bilan hamkorlik:** Tarbiya darslarini integratsiya qilish orqali ota-onalar uchun "Uyda ekologik tarbiya" mavzusida chiroqni o'chirish, tish va qo'llarni yuvishda suvni tejash, polietilen paketlardan voz kechish bo'yicha qisqa yo'riqnomalar tayyorlash muhimdir.

**Rag'batlantirish tizimi:** Maktabda eng ekologik toza sinf yoki eng ko'p ko'chat ekan o'quvchini "Tabiat do'sti", "Tabiat posboni", "Yashil sinf sardori" nominatsiyalari bilan, oilada esa kichik sovg'alar bilan taqdirlash tavsiya etiladi. Bunday rag'batlantirishlar bolalarda tabiatga mehrni yanada oshiradi.

**Axborot texnologiyalaridan foydalanish:** Tabiat mo'jizalari haqidagi qisqa metrajli videoroliklar va mult-filmlar, tabiatni asrashga undovchi asarlarni namoyish etish, dunyodagi ekologik xavf ostida turgan hududlar haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish mumkin.

Ushbu metodlar orqali bola ekologiyani "fanga oid mavzu" sifatida emas, balki "hayotiy zaruriyat" sifatida qabul qila boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish – bu shunchaki tabiat haqida ma'lumot berish emas, balki kelajak avlodning dunyoqarashi, qadriyatlarini va turmush tarzini belgilovchi strategik vazifadir. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalik davrida qo'yilgan ekologik bilimlar insonning butun umri davomida tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ekologik tarbiya berishda faqat darsliklar bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchining hissiyotlariga ta'sir etuvchi, uni tabiat bilan bevosita muloqotga chorlovchi usullardan foydalanish kutilgan natijani beradi. Bola tabiatni sevishni o'rgansa, uni asrash uning uchun majburiyat emas, balki ichki ehtiyojga aylanadi. Bu esa mamlakatimizning ekologik barqarorligi va musaffo kelajagi uchun eng ishonchli sarmoyadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish – bu shunchaki tabiatni asrash haqidagi saboq emas, balki kelajak avlodning dunyoqarashi va ma'naviy poydevorini qurish demakdir.

Bola o'zi yashab turgan atrof-muhit uchun daxldorlikni his qila boshlaydi. Oddiygina gulni uzmaslik yoki chiqindini savatga tashlash orqali unda ijtimoiy mas'uliyat shakllanadi. O'quvchilarda o'simliklar va hayvonot olamiga nisbatan rahm-shafqat, mehr-muhabbat tuyg'ulari rivojlanadi. Bu esa ularning umumiy insoniy fazilatlarini boyitadi. Ekologik madaniyat orqali bola toza havo, suv va tuproqning inson salomatligi uchun qanchalik muhimligini anglab yetadi. Bu bilimlar uni kichikligidanoq gigiyena va ekologik toza mahsulotlarni qadrlashga o'rgatadi. Bugun tejamkorlikni (suvni isrof qilmaslik, energiyadan oqilona foydalanish) o'rgangan bola ertaga resurslarni qadrlaydigan ongli fuqaroga aylanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish – bu ona tabiatni asrash orqali insoniyatning yashab qolishini ta'minlaydigan ma'naviy bilim berishdir. Bu tarbiya natijasida tabiatga "iste'molchi" sifatida emas, balki uning bir qismi va himoyachisi sifatida qaraydigan sog'lom avlod shakllanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)ni tashkil etish to'g'risida"gi PF-174-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-6487227>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-mayqarori. "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4354743>
3. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi / D. Sharipova, D. Xodiyeva, M. Shirinov. – Toshkent: "Shafoat Nur Fayz", 2020-yil.
4. Azimova S.T. Maktab o'quvchilari va talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish // Academic Research in Educational Sciences. – 2021-yil. – T. 2. – № 9. – B. 452–456.
5. Maxsudova G., Abrordinova G., Ashurov X. Ekologik ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyati // Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2025-yil. – T. 82. – № 4. – B. 116–122.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.